# MAVZU: AXBOROT TIZIMLARINING TA'MINOTI

Istalgan vazifalardagi axborot tizimi ishini ta'minlovchi jarayonlarni umumiy xolda kuyidagicha tasavvur etish mumkin (2.2-rasm):

( tashki yoki ichki manbalardan axborotni kiritish;

( kiritilgan axborotni kayta ishlash va uni kulay kurinishda takdim etish;

( iste'molchiga axborotni uzatish;

( teskari aloka, ya'ni kiritilayotgan axborotni tuzatish uchun foydalanuvchilar tomonidan kayta ishlangan axborot bilan ta'minlash.




*2.2-расм.*

Kullash soxasidan kat'i nazar, axborot tizimlarining samarali faoliyat kursatishi bir kator ta'minotlar bilan boKlikdir. Ularni dasturiy, texnik, xukukiy, axborot, tashkiliy, matematik va lingvistik ta'minotlarga ajratilishi kabul kilingan (2.3-rasm).

Axborot ta'minoti — axborot tizimlarida ma'lumotlar omborini yaratish, xujjatlashtirishning bir xil tartibga keltirilgan tizimlarini ichiga olgan axborotni kodlashtirish, joylashtirish va tashkil kilish buyicha uslublar va vositalar yiKindisidir.

Kabul kilinadigan boshkaruv karorlarining ishonchliligi va sifati kup jixatdan ishlab chikilgan axborot ta'minoti sifatiga boKlik.

Dasturiy ta'minot — kompyuter texnikasi vositasida ma'lumotlarni kayta ishlash tizimi (MKIT)ni yaratish va foydalanish dasturiy vositalari yiKindisidir. Dasturiy ta'minot tarkibiga bazaviy (umumtizimli) va amaliy (maxsus) dasturiy maxsulotlar kiradi.




2.3-расм.

Bazaviy dasturiy vositalar inson va kompyuterning uzaro xarakatlarini avtomatlashtirish, ma'lumotlarni kayta ishlash, namunaviy protseduralarni tashkil etish, MKIT texnik vositalari ishlashi nazorati va diagnostikasi uchun xizmat kiladi.

Amaliy dasturiy ta'minot axborot tizimi funktsional vazifalarni xal etishni avtomatlashtirish uchun muljallangan dasturiy maxsulotlar yiKindisini uzida namoyon etadi. Ular universal vositalar (matn muxarrirlari, elektron jadvallar, ma'lumotlar bazasini boshkaruv tizimlari) va maxsus vositalar — funktsional kichik tizimlarni amalga oshiruvchi turli xil ob'ektlar (iktisodiy, muxandislik, texnik va boshkalar) sifatida ishlab chikilishi mumkin.

Texnik ta'minot ma'lumotlarni kayta ishlash tizimining faoliyat kursatishi uchun kullaniluvchi texnik vositalar kompleksidir. Ushbu ta'minot ma'lumotlarni kayta ishlovchi, namunaviy operatsiyalarni amalga oshiruvchi kurilmalarni uz ichiga oladi. Bunday kurilmalarga kompyuterlardan tashkari, atrof (periferiya) texnik vositalari, turli xil tashkiliy texnika, telekommunikatsiya va aloka vositalari xam kiradi.

Uukukiy ta'minot axborot tizimini yaratish va faoliyat kursatishini tartibga soluvchi xukukiy me'yorlar yiKindisini uzida namoyon etadi.

Lingvistik ta'minot inson va kompyuter mulokotini ishlab chikish va ta'minlash samaradorligini oshirish uchun MKITni yaratish va foydalanishning turli boskichlarida ishlatilgan til vositalari yiKindisidan iborat.

## Savol va topshiriklar

1. Axborot tizimlarida kanday jarayonlar ruy beradi?
2. Axborot ta'minoti nimalarni uz ichiga oladi?
3. Dasturiy ta'minot tarkibiga kanday dasturiy maxsulotlar kiradi?
4. Amaliy dasturiy vositalarning vazifalarini aytib bering.
5. Texnik ta'minot deganda nimani tushunasiz?